

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar fakulteti
Kimyo bo‘limi
,Noorganik va Organik kimyo kafedrası

Munarova Difuza

**2-AMINO-6-METILPIRIMIDINON-4 NING AZOBIRIKISH REAKSIYALARINI
O‘RGANISH**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar: dost. Oripov E.O.

20__ y. «__» _____

Kafedra mudiri _____

Bitiruv malakaviy ish YaDAKning 20__ yil “__” _____dagi majlisida himoya qilindi va _____ball bilan baholandi (____-bayonnoma).

YaDAK raisi: _____

A‘zolari: _____

Samarqand-2012

TAVSIYASI

2-Amino-6-metilpirimidinon-4 sitozinning tuzilish izomeri hisoblanib ham nazariy va ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki pirimidinon-4 fragmentli azot asoslari tirik organizmlarning hayotiy jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ulardan ayrimlari (urasil, timin, sitozin, guanin) nuklein kislotalar, vitaminlar, alkaloidlar va boshq. tarkibiga kirib , tabiatda keng tarqalgan va dorivor moddalar sifatida keng qo'llaniladi.

Uning molekulasida bir qancha reaksiya markazlarning mavjudligi amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyotlarda 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning sintezi va kimyoviy o'zgarishlari yetarlicha o'rganilgan, biroq uning azobirikish reaksiyasiga bag'ishlangan ma'lumotlar uchramaydi.

Munarova Difuza 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning fenil va n-sul'fofenil diazoniyl xloridlar bilan azobirikish reaksiyalarini o'rganib, yangi moddalar diazoaminobirikma (triazin) lar va azobirikmalar sintez qildi. Olingan moddalarning suvda eruvchan mustahkam bo'yoq va indikator xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Hosil qilingan 2(fenil(n-sul'fofenil)diazo)aminopirimidinon-4 larning qaytarish va asidoliz reaksiyalarini o'rganish orqali ularning tuzilishini aniqladi.

Malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida Munarova Difuza o'zining yaxshi bilimiga ega ekanligini va yaxshi tajriba ishlarini bajaruvchi, mehnatsevar talaba ekanligini ko'rsatdi.

Munarova Difuza tayyorlagan malakaviy bitiruv ishi o'zining dolzarbligi, hajmi va olingan natijalarining muhimligi bilan barcha talablarga to'liq javob berishi bilan yuqori bahoga munosib ish hisoblanadi va uni himoya qilishga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

dos. Oripov.E.O.

SamDU Tabiiy fanlar fakul'teti „Kimyo” bo'limi „Noorganik va Organik kimyo” kafedrasi 4-kurs talabasi Munarova Dildufzaning „2-Amino-6-metilpirimidinon-4 ning azobirikish reaksiyalarini o'rganish” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

TAQRIZ

Azotli geterosiklik birikmalar orasida pirimidinon-4 lar muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ular qatorida ko'pgina biologik faol moddalar topilgan bo'lib ular medisina, veterinariya va qishloq xo'jaligida keng ishlatilib kelinmoqda. Ular molekulasida ko'p reaksiyon markaznin bo'lishi, sintezi va kimyoviy o'zgarishlarini o'rganish ham ahamiyatga ega.

Munarova Dildufa nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi sitozinning tuzilish izomeri hisoblangan 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning azobirikish reaksiyalarini va olingan moddalarning kimyoviy o'zgarishlarini o'rgangan.

Malakaviy bitiruv ishi quyidagi bo'limlardan iborat: Kirish(1 bet), adabiyot tahlili(36 bet), natijalar tahlili(4 bet), tajriba qismi(4 bet), xulosa(1 bet) hamda adabiyotlar ro'yhati(62 ta) dan iborat.

Adabiyot tahlilida 2-amino-6-metilpirimidinon-4 va 2-amino-xinazalon-4 larning sintezi va kimyoviy o'zgarishlariga bag'ishlangan ma'lumotlar jamlanib tahlil qilingan.

Ishning natijalar tahlili qismida 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ni fenil(n-sui'fopenil)diazoniy xlorid bilan azobirikish reaksiyasio'tkazilib, uning diazoaminobirikma(triazen)lari sintez qilingan va olingan moddalarning asidoliz va qaytarish reaksiyalari o'tkazish orqali xossalari o'rganilgan. Sintez qilingan moddalar orasida indikator va suvda eruvchan mustahkam bo'yoq xossasiga ega bo'lgan azobirikmalar aniqlangan.

Olingan moddalarning tuzilishi ularning kimyoviy o'zgarishlarini o'rganish orqali tasdiqlangan.

Munarova Dildufzaning malakaviy bitiruv ishi o'zining dolzarbligi, olingan natijalarning aniqligi va hajmi bilan shu ishga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi va yuqori bahoga loyiq deb hisoblayman.

Taqrizchi:

Fiziologiya, genetika va biokimyo
kafedrasi prof.

O'ralov M.O'.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. ADABIYOT TAHLILI.....	4
1.1. 2-Aminopirimidinon-4 larning sintezi	4
1.2. 2-Aminopirimidinon-4 larning ayrim elektrofill almashinish reaksiyalari.....	7
1.2.1. 2-Aminopirimidinon-4 larning alkillanishi.....	7
1.2.2. Asillash reaksiyalari.....	12
1.2.3. 2-Aminopirimidinon-4 ning diazlash reaksiyasi.....	12
1.2.4. 2-Aminopirimidinon-4 ning aminometillash reaksiyasi.....	15
1.3. 2-Aminoxinazolin-4 larning sintezi va kimyoviy o'zgarishlari.....	15
1.3.1. 2-Aminoxinazolon-4 larning sintezi.....	15
1.3.2. 2-Aminoxinazolon-4 larning kimyoviy o'zgarishlari.....	18
1.3.2.1. 2-Aminoxinazolon-4 larning alkillash reaksiyalari.....	18
1.3.2.2. 2-Aminoxinazolon-4 larning asillash reaksiyalari.....	21
1.3.2.3. 2-Aminoxinazolon-4 larning ayrim boshqa reaksiyalari.....	26
1.4. Azo- va diazobirikmalar.....	31
1.4.1. Diazobirikmalar.....	31
1.4.2. Diazoniy birikmalarining azot ajralmasdan boradigan reaksiyalari	
(Azobirikmalar)	34
II. NATIJALAR TAHLILI.....	40
III. TAJRIBA QISMI.....	44
3.1. Dastlabki moddalar sintezi.....	44
3.2. 2-Amino-6-metilpirimidinon-4 ning azobirikish reaksiyalari.....	45
XULOSA.....	48
ADABIYOTLAR.....	49

Kirish

2-Almashtirilgan pirimidinon-4 hosilalari ham nazariyva ham amaliy ahamiyatga ega. Pirimidin asoslari-urasil, tiourasil, sitozin, timin va boshq. tirik organizmlarning hayotiy jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ulardan ayrimlari (urasil, timin, sitozin, guanin)nuklein kislotalar, vitaminlar, alkaloidlar va boshqalar tarkibiga kirib, tabiatda keng tarqalgan. Pirimidin hosilalari dorivor moddalar, gerbisidlar, fungisidlar, bo'yoqlar, vulkanlashni tezlashtiruvchi, barqarorlashtiruvchi, gazlamalarni bo'yovchi va boshq. sifatida keng qo'llaniladi.

2-Almashtirilgan pirimidinon-4 molekulasida bir qancha reaksiyon markazlarning mavjudligi ularning nazariy ahamiyatini ifodalaydi. Bu sohada sitozinning tuzilish izomeri bo'lgan 2-amino-6-metilpirimidinon-4 alohida o'rin egallaydi.

Adabiyotlarda 2-amino-6-metilpirimidinon-4 va uning kondensirlangan benzol halqasi tutgan analogi 2-aminoxinazolon-4 larning sintezi va kimyoviy o'zgarishlari to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar mavjud, biroq ularning diazoniyl tuzlari bilan ta'sirlashuviga ta'luqli ma'lumotlar uchramaydi.


SHuning uchun ham 2-amino-6-metilpirimidinon-4 larning azobirikish reaksiyalarini o'rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishi 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning fenildiazoniyl va n-sul'fofenildiazoniyl xloridlar bilan reaksiyalarini o'rganishga bag'ishlangan.

IADABIYOT TAHLILI


1. 1. 2-Aminopirimidinon-4 larning sintezi.

2-Almashgan pirimidin-4larni sintez qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri β -ketoeffirlarni mochevina, tiomochevina va guanidin bilan kondensatsiyasidir:




Asetosirka efirining mochevina va uning N-alkil almashgan vakillari bilan ta'siri natijasida bir qator 6-alkil (galogenamin)-3H va 6-metil-3R¹-2 oksopirimidinon-4 lar sintez qilindi [1-5].

Aseto- va benzoilsirka efirlarning mochevina bilan kondensatsiyasi 6-metil (fenil)-2-tioksopirimidinon-4 hosil bo'lishiga olib keladi. Potent adabiyotda 6-metil – 2 – tioksopirimidinon-4ning yuqorida keltirilgan birikmalardan natriy sulfat va o'yuvchi natriyning spirdagi eritmasi ishtirokida sintez qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Boshqa mualliflarlar ushbu sintezni kaliy karbonatning suvdagiva matriy metilatning metanoldagi eritmalar yordamida amalga oshirdilar. Benzolsirka efirining tiomochevinaning etanoldagi eritmasi va bilan natriy etilat ishtirokida kondensatsiyasi natijasida 6-fenil-2-tioksopirimidinon-4 olindi. Asetosirka efirining N-alkilalmashgan tiomochevina bilan kondensatsiyasi 6-metil-3-R-5-R¹-2-tioksopirimidinon – 4 olish imkonini beradi [1, 6]. N-alkaoksibenzilasetosirka efirlarning mochevina bilan natriy metilat ishtirokida ta'sirlashuvi natijasida 6-metil-5-(n-olkoksobenzil)-2-tioksopirimidinon -4 olingan. α -Fenilazo- β -triftoformetilasetosirka efirining tiomochevina bilan reaksiyasi 6-triftoformetil-5-fenilazo-2-tioksipirimidon-4 ning hosil bo'lishiga olib keladi. 2-Tioksipirimidinlardagi oltingugurt atomining almashinishi izotiomochevinalarining ketoeffirlar bilan kondensatsiyasi hisobiga sodir bo'ladi. 2-dimetilaminoalkiltiopirimidin-4 larning olimish usuli patentlangan. 5-Almashgan 2-alkiltiopirimidinlarning sintezi haqida ham ma'lumotlar bor [7, 9].




4Alkoksibenzilasetosirkaefirlarning guanidin bilan natriy etilatishtirokidata'sirlas huvinatijasida 2-amino-5-(n-alkoksibenzil)-6-metilpirimidinon – 4 larsintezqilingan [10]. Guanidinkarbonatning α -alkilasetosirkaefir bilan metanol ishtirokida qizdirilshnatijasida 2-amino-6-metil-5-R-pirimidin – 4 larsintezqilingan [11].




2-N-nitroamino-3,6-dimetilpirimidinon-4 asetosirkaefir va N-metil-N-nitroguanidin lardankaliy karbonatning suvdagieritmasi ishtirokida olingan [12]. Guanidin fosfor kislotadifenil efirining asetosirkaefir bilan kondensatsiyasini atijasida gidrolizlanganda 2-amino-6-metilpirimidinon-4 hosil bo'luvchi 6-metil-2-difenoksifosforilaminopirimidinon-4 sintez amalga oshirilgan.

N-metilguanidinkarbonatning etilasetat bilan DMF Adava N,N-dimetilguanidin sulfat bilan metanol dan atriymetilatishtirokidakondensatsiyasini atijasida mos ravishda 2-metil va 2-dimetilamino-6-metilpirimidinon -4 sintezqilingan [13]. Benzilasetatning guanidinkarbonat bilan spirt da 12 soatuglerod (II) oksido'tkazib turish orqalita'sirlashuvinatijasida 2-amino – 6-fenilpirimidinonni olish mumkin [14].




N-almashtirish ba N¹,N³-dialmashtirish 2-okso-, -tioksi pirimidinon – 4 larning aseto α -ketoaldegidlardan sintez qilishning yaxshilangan bir bosqichli usullari yaratilgan [15,16]. Malein va fumar kislotalar yoki ular hosilalarining mochevina bilan yoki tiomichevinalar bilan polifosfat kislotasihtirokida kondensatsiyasiga

asoslangan 2-okso-(tiokso)pirimidinon-4lar hosilalari olinishining bir bosqichli usullari yaratilgan [17].




Mochevina va N-alkilmochevinaning asetilenkarbon kislotalar bilan kondensatsiyasi natijasida 2-okso-pirimidinon-4 sintez qilingan [18,19].



2-Amino-6-oksi-5-(n-alkoksibenzil)pirimidinon -4 lar guanidinning almashgan molon efirlari va uning hosilalaridan olingan [12,20,22].


Ko'pincha 2-aminopirimidinon-4larning sintezi asosida 2-alkiltioguruhni nukleofil almashinish reaksiyasi yotadi. Ya'ni 2-aminopirimidinon-4 2-alkiltiopirimidinon-4ga ammiak yoki aminlar ta'sir ettirib olingan [26]



2-Metiltiopirimidinon-4 ni ammoniy asetat yoki alkilammoniy asetat bilan qo'shib suyuqlantirish orqali 2-amino (alkilamino) pirimidinon-4 olishning qulay usuli ishlab chiqilgan [26]

Adabiyotlarda 2-amino-6-metil (fenil) pirimidinonlarning bir necha olinish usullari keltirilgan. Lekin, ular juda qiyin, bir nechta bosqichlardan iborat, ularning chiqish unumi esa juda kam (2-amino-6-metilpirimidinon-4 uchun 28% atrofida, 2-amino-6-fenilpirimidinon-4 uchun esa 10%). Shuning uchun yuqorida ko'rsatilgan birikmalarning bir bosqichli sintez usulini yaratish uchun mualliflar tomonidan asetosirka efirlarning erkin guanidine bilan (guanidine gidroksloridning natriy etilat

bilan ta'sirlashuvi natijasida olingan) etilat natriyning spirtidagi eritmasida olib boriladigan yo'li tanlangan. Bunda 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning chiqish unumi 72%, 2-amino-6-fenilpirimidinon-4 niki esa 30% bo'lishi aniqlangan. Mahsulotlar chiqishidagi bunday farq fenil guruhining kislorod atomidagi taqsimlanmagan juft elektronining tortishi va vodorod atomining proton holida ajralish ehtimoli hisobiga gidroksil guruhining amino guruh bilan almashinishini qiyinlashtiradigan hususiyati tufali izohlanadi.



2-Amino-3,6-dimetilpirimidinon-4 ni 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ni metil yodid bilan metillab oson olish mumkin.


Ish mualliflari 2-metilamino-6-metilpirimidinon-4 sintezi uchun mahsulot chiqish unumi juda kam bo'lgan etilasetatning guanidinkarbonat bilan reaksiyasini tanlashdi [13]. Shuning uchun belgilangan moddani sintez qilishda mualliflar o'z e'tiborlarini Dimrot qayta guruhlashiga qaratdilar [23]. Ular 2-metilaminoxinozolin-4 [24] sintezida ishlatilgan lekin, 3-metil-2-aminopirimidin-4larning 2-metilaminopirimidinonga aylanishida ishlatilmagan. Ushbu qayta guruhlanishning ishlatilishi 2-metilamino-6-metilpirimidinonni 2-amino-3,6-dimetilpirimidinondan 80% mahsulot chiqish unumi bilan olish imkonini berdi. Qayta guruhlanish mahsulotini metil yodid bilan ishqorning spirtidagi eritmasida metillash yordamida 2-amino-3,6-dimetilpirimidinon -4 sintez qilindi. 2-amino-6-metilpirimidinon-4 dimetilanilen ishtirokida fosfor xlorid bilan natriy metilat bilan qayta ishlanganda 2-amino-6-metil-4-metoksipirimidin hosil bo'ladigan 2-amino-6-metil-4-xlorpirimidinni hosil qiladi.

1. 2. 2-almashgan pirimidinon – 4lar ning ayrim elektrofil almashinish reaksiyalari

1. 2. 1. 2 -aminopirimidinon – 4 larning alkillanishi.

Agar 6-metil-2-oksipirimidinonning 2-pirimidin sikli holatida kislorod, oltingugurt yoki selen atomlari o'rniga azot atomi joylashsa alkillash reaksiyasi yo'nalishiga ta'sir etuvchi boshqa faktorlar bilan bir qatorda geteroaton xarakteri

hanbirmuncha ta'sir qiladi. Bunda pirimidin siklining 2-okso-, -tiokso-, -selenokso-k-2-aminopirimidinonga o'tishdagi qarshiligini ham e'tiborga olish kerak. 2-amino-6-R-pirimidinon -4 molekulasini okso-, -tiokso-, -selenokso – guruhlarini aminoguruhga almashinish natijasi deb qarash kerak emas. Agar 2-okso-, -tiokso-, -selenoksopirimidinon-4 molekulasida protonlar o'z navbatida pirimidin siklining ikkala N¹ va N³ atomlarda joylashgan bo'lsa, ya'ni ushbu holatda okso-, -tiokso- yoki selenokso forma amalga oshirilayapti, u holda 2-amino-6-R-pirimidinon-4 da protonlar N³ atomida joylashadi, N¹ atomi esa protonlanmagan, buning natijasida qo'shbog' siklining N¹ va C¹ atomlari orasida joylashgan, ya'ni molekula amin formaga ega. Boshqa so'z bilan aytganda 6-metil-2-okso-, -tiokso-, -selenoksopirimidinon-4 dagi - N¹ – C² = X (X=O,s,Se) fragmentga 2-amino-6-R-pirimidinon -4 dagi N¹=C²-NH₂ mos keladi. 2-amino-6-metilpirimidinon-4 tuzlarida anion polidentant hisoblanadi va uning electron zichligi besh yoki uch uglerod atomi o'rtasida toutomer amin hosil qilib, delokallangan, va –N³,N²,N¹ va C⁴ kabi potensial reaksiyon markazlar mavjud. shunga ko'ra, 2-amino -6 – metal pirimidinon – 4 tuzlari uchun quyidagi muvozanat sistemasini keltirish mumkin:



2-Amino-6-metilpirimidinon-4

natriylituzlarining IQ

spektrlarini o'rganish shuniko'rsatadiki,

metalkoordinatsiya kislorod atomi bilan yuz beradivashuning uchun tuz hosil bo'lishidagi orbital guruhlari qatnashadi, bu esa tuz spektridagi neytral molekulaning spektrida 1680 sm⁻¹ dan amoyon bo'ladigan C

Obog'igategishli yutilish polasasining yo'qolishini izohlaydi.

Bundan

strukturaning anchato'g'riligini kelib chiqadi.

Mualliflartomonidan

2-amino-6-metilpirimidinon-

4 neytral tuzning metil yodid va metil tozilat bilan DMFA, DMSO da,

asetonitril da,

dioksandava etanol da metil lanish reaksiyasini keltirilgan. Uni alkil lashasossan

2-amino-

3,6-dimetilpirimidinon-4 hosil bo'lishi bilan boradi.

Chetlanish sifatida metil yodid ishtirokida spirt bilan xonaharoratida va asetonitril bilan anqizdirilganda gimetil lanishni keltirish mumkin,

bunda mahsulot chiqish unumini mos ravishda

5


va

10

%

bo'lgan C^4 markazlarda almashtirish mahsulotlari olingan. 2-amino-6-fenilpirimidinon-4 ning metillanishi ham asosiy modda sifatida N^3 azot atomining alkillanish mahsuloti hosil bo'lishi bilan boradi.


Metiltozillat bilan DMFD da alkillaganda C^4 – metal mahsulot hosil bo'lish jarayoni boradi.



Shunday qilib, alkillaganda N^3 -metil mahsulot hosil bo'lishi bilan boradigan 2-aminoxinizolin-4 dan farqli ravishda [29], 2-amino-6-metil-,fenilpirimidinon-4 ning polidentli anionlarini metillaganda C^4 – mahsulot hosil bo'lishi aniqlangan. Bu O-alkillash mahsulotini termodinamik barqarorligini izohlaydi. 2-amino-6-fenilpirimidinon-4 da 6-fenil-2-tioksopirimidinondagi kabi C^4 reaksiyon markaz hisobiga reaksiyaning borishi 4-holatdagi fenil guruhi va amid karbonili orasida qarshilik borligini yana bir bor isbotlaydi. 2-amino-6-metilpirimidinon-4 da metal guruh reaksiyon markazlarning asosligini oshiradi va shu bilan reaksiyani asosligi yuqori bo'lgan C^4 atomi bo'yicha borishini ta'minlaydi. 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning boshqa turli alkilgalogenidlar bilan alkillash ham o'rganilgan. Ushbu reaksiyani 4-butil-,geksilbromidlar va 4-pektilyodid lar bilan o'rganish shuni ko'rsatdiki, barcha hollarda 2-amino-4-alkoksi-6-metilpirimidinonlarning C^4 -alkillanish mahsulotlari hosil bo'ladi. Shunga o'xshash natijalar 2-amino-6-metilpirimidinon-4 ning butilyodid bilan alkillaganda ham olingan. 2-amino-6-metilpirimidinon-4 alkillash va metal yodid va metiltozillat ishtirokida metillash reaksiyalari yo'nalishlarini solishtirganda ular o'rtasida ancha farq borligini ko'rish mumkin. metil yodid va metiltozillat ishtirokida boradigan reaksiyada reaksiya N^3 atomi hisobiga ketadi. Bundan farqli ravishda uni $C_4 - C_7$ alkilgalogenidlar bilan alkillashda reaksiyaning haqiqatga yaqin yo'nalishi O^4 atomi bo'yicha boradi, bu esa alkil qoldig'i hajmi va uning tuzilishining sezilarli roli borligini ko'rsatadi.


Ko'rib o'tilgan alkillashlardan farqli ravishda 2-amino-6-metilpirimidinon-4 α -bromasetofenon bilan alkillanganda reaksiya N^1 azot atomiga ketadi. Hosil bo'lgan mahsulot siklizatsiyalanib imidazo [1,2- α] pirimidinga aylanadi [27].

α , ω –digaloid alkanlar 2-aminopirimidinon-4lar bilan ta'sirlashib mahsulotlar aralashmasini hosil qiladi. Masalan, 2-amino-6-metilpirimidinon-4ning natriyli tuzi ortiqcha 1,4-dibrombutan bilan ta'sirlashib, kichik unum (6%) bilan bisiklik mahsulot -9-metilpirimido-[1,3- α] pergidro-1,6-dazelinon-7 ni hosil qiladi [5]:




2-Amino-6-metilpirimidinon-4ning 6-holatidagi metil guruhi o'rnida fenil guruhi bo'lishi alkillash reaksiyasining yo'nalishiga kuchli ta'sir etmaydi. Masalan, 2-amino-6-fenil-pirimidinon-4 metil yodid va metil tozilatlar bilan metillanganda asosan 2-amino-3-metil-6-fenilpirimidinon-4 ni beradi.

Ushbu reaksiya metiltozilat bilan qizdirib o'tkazilganda O⁴-metillash mahsuloti 6% unum bilan hosil bo'ladi [5]:




2-Asetilamino-6-metilpirimidinon-4 va uning N²-metilhsilasining alkillash reaksiyalari o'rganilgan [24]. Birinchining molekulasida anionlarning manfiy zaryadini delokallashtirishda ishtirok etuvchi qo'shimcha reaksiya markazi mavjud, ya'ni reaksiya boshqa yo'nalishda ham ketishi mumkin.




Bundan tashqari ekzosiklik azot atomida asetil guruhning mavjudligi undagi protonning ajralishini osonlashtiradi. Umuman olganda barcha reaksiya markazlarning asosligini butunlay o'zgartiradi.

2-Asetilamino-6-metilpirimidinon-4 ni metil yodid va metil tozillat bilan spirtli eritmada turli xil sharoitda metillaganda faqat 2-asetilamino-3,6-dimetilpirimidinon-4 hosil bo'ladi, ya'ni reaksiya N³-markazga ketadi. Agar metil yodid bilan metillash DMFA da o'tkazilsa, ekzosiklik azot atomi metillanadi [2-4%]. Agar shu reaksiyada metiltozilat ishlatilsa, haroratning oshishi bilan mahsulotning unumi (N²-metil mahsulot) ortadi. Bunda N³: N² mahsulotlar nisbati 5:2,1 (hona haroratida) va 4:1 (qizdirilganda bo'ladi).




Mualliflar O- va N¹-alkillash hamda N², N³ yoki (N², O⁴, N¹, N³-dialkillash mahsulotlarining hosil bo'lishini kuzatmadilar.

2-(N-metil, N-asetilamino-6-metilpirimidinon-4 metil yodid bilan spirtda metillansa, 2-(N-metil-, N-asetil) amino-3,6-dimetilpirimidinon-4 ni hosil qiladi [5]:






2-Amino-6-metilpirimidinon-4, dimetilalanilin ishtirokida fosforxloroksidi (POCl₃) bilan ta'sirlashib 2-amino-6-metil-4-xlorpirimidinni hosil qiladi va u esa natriy metilat bilan ta'sirlashib 2-amino-6-metil-4-metoksipirimidinonga aylanadi:




1.2.2. Asillash reaksiyalari

2-Amino-6-metil-, -3,6- dimetil-, 6-fenilpirimidinon-4lar va 2-metilamino angidridi bilan asillanib mos ravishda 2-asetilaminopirimidinon-4 larni yaxshi unum bilan hosil qiladi.




1.2.3. 2-Amino-6-metil pirimidinon-4 ni diazlash reaksiyasi [28].

Ma'lumki, 2-amino-6-metilpirimidinon-4 molekulasida aminoymin va laktam – laktim tautomeriyasi natijasida 4^x tautomeriya ko'rinishlarida mavjud bo'lishi mumkin, shuning uchun molekulada 3 ta potensial reaksiya markazlari mavjud – N¹, N², N³.



Diazlash va azobirikish reaksiyalari
yo'nalishdagi o'zgarishlar birinchi va ikkinchi hosil bo'ladi. shunday qilib, 2-amino-

6-metilpirimidinon-4 nikaliy nitrit bilan xlorid kislotasi ishtirokida sovuqda (0°C) diazotlaganimizdasariq rangli modda olindi. Mualliflar tahminlarida ushbu moddaga 6-metilpirimidinon-4-il-2-diazoniy xlorid mos keladi:



Ushbu modda kislotali sharoitda barqaror. Qizdirilganda azot ajralib chiqadi.

Bizga ma'lumki, diazotlash reaksiyasi elektrokuch mexanizmi bo'yicha boradi va reaksiya nukleofilligi yuqori bo'lgan azot atomlarida uch reaksiyon markazlaridan biri ($\text{N}^1, \text{N}^2, \text{N}^3$) hisobiga boradi. Biz N^2 markazini N^3 va N^1 ga qaraganda nukleofilligi yuqori deb hisoblaymiz, chunki, u amid hisoblanadi, karbonil guruhi elektron zichligini o'ziga tortib, uning nukleofilligini kamaytiradi, lekin ikkinchi holatdagi azot atomi birlamchi amin sifatida nisbatan nukleofilligi yuqori hisoblanadi, shuning uchun reaksiya N^2 – markazi bo'yicha boradi.


Nima uchun N^1 holatida diazobirikish reaksiyasi boorish ehtimoli juda kam? degan savol tug'iladi. Bu shu bilan izohlanadiki, 4^x tautomer ko'rinishlaridan I ko'rinishdagisi boshqalariga nisbatan termodinamik jihatdan eng barqaror bo'lib hisoblanadi.

Reaksiya mexanizmi (S_E)




yoki






Olingan 6-metilpirimidinon-4-il-2-diazoniy xlorid (II) bilan dimetilanilin ishtirokida azobirikish reaksiyasi o'tkazilganva to'q jigarrang rangdagi kristall modda olingan. Bunda azobirikish reaksiyasi natijasida azobo'yoq hisoblanuvchi 2-(n-dimetilaminofenildiazo)-6-metilpirimidinon-4 (III) azobirikmasi hosil bo'ldi.



1.2.4. 2-Aminopirimidinon-4ning aminometillanish reaksiyasi

2-Amino-6-fenil(metil)pirimidinon-4ni Mannixabo'yicha alkilmetillash natijasida 2-amino-6-fenil (metil)-5-aminometilpirimidinon-4lar sintez qilingan [14]:




$R=CH_3, C_6H_5$; $R^1=CH_3, (CH_2)_5, C_2H_5$;

1.3. 2-Aminoxinazolon-4 larning sintezi va kimyoviy o'zgarishlari.


2-Aminopirimidinon-4 larning benzol halqasi bilan kondensirlangan birikmalari-2-aminoxinazolon-4 lar bilan solishtirish maqsadida ularning sintezi va kimyoviy o'zgarishlari tahlilini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1.3.1. 2-Aminoxinazolon-4 larning sintezi


2-Aminoxinazolon-4 olishning qulay usullaridan biriantronil kislota va uning hosilalarini guanidine bilan ta'sirlashuvidir [29, 30]:



Antronil kislota, uning efirlari yoki amidlari sianamid yoki kalsiy sianamid bilan ta'sirlashib 2-aminoxinazolon-4larni hosil qiladi. Bu usul qulay va shuning uchun ham keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi [31]:




Bromsiandan foydalanib xam 2-aminoxinazolon-4 sintezlash mumkin. Misol, antronilamid va bromsiandan olingan 2-sianaminobenzamid erituvchilarda uzoq vaqt suyuqlantirilganda 2-aminoxinazolon-4 ga aylanadi [32].



2-Aminoxinazolon-4 antronil kislotaaning sianamid [33,34] guanidinkarbonat [35], shuningdek 2-xlor-, -alkoksi-, -metiltio-, -sianxinazolon-4 larning ammiak bilan nukleofil almashinish [36-38] orqali sintez qilinadi.


“Sianamid usulini” 6-metil-, -metoksi-, -nitro-, -brom-, 8-xlor-2-aminoxinazolon-4 lar sinteziga tadbiiq qilish uchun 5-metil-, -metoksi-, -nitro-, -brom-, -3-xlorantronil kislotaning sianamid bilan kondensatsiya reaksiyasi o’rganilgan. 5-metilantronil kislotadan 6-metil-2-aminoxinazolon-4 yaxshi unum (78%) bilan olingan.

5-Metilantronil kislotaning guanidinkarbonat bilan suyuqlantirilib 6-metil-2-aminoxinazolon-4 sintez qilingan [31]; bunda reaksiya qattiq sharoitda borib mahsulot unumi 50%ni tashkil qiladi:




“Sianamid usuli” da 2-aminoxinazolon-4 unumi juda past. Bundan tashqari, uni aromatic halqada elektromanfiy o’rinbosar tutgan 2-aminoxinazolon-4 lar sintezida qo’llab bo’lmaydi, chunki ko’rsatilgan o’rinbosarlarda’sirida antronil kislota aminoguruhining asosiligi pasaygan bo’ladi.

N-alkil-, -aril-, -aralkilsianamidlarning antronil kislota metil efirlari bilan kondensatsiyasidan bir qator almashgan 2-aminoxinazolon-4 lar olingan; bunda oraliq mahsulot sifatida hosil bo’lgan guanidinlarning siklizatsiyasidan ikkita izomerlar aralashmasi – 2-alkil (aril, aralkil)aminoxinazolon-4 va 3-alkil(aril,alkil)-2-aminoxinazolon-4 hosil bo’ladi:




Izokranil-, siklogeksil, o- va n-tolil izosianatlar faqat 2-almaashgan 2-aminoxinazolon-4ni hosil qiladi. Mualliflar 3-almashgan 2-aminoxinazolon-4larning 2-almashgan 2-aminoxinazolon-4 larga izomerlanishini ko'rsatdilar [44,45].

3-Metil-2-aminoxinazolon-4 lardan Dimrat qayta guruhlanish orqali 2-metilaminoxinazolon-4 sintez qilingan, bu esa yuqoridagi izomerlanishni tasdiqlaydi:




Antronil kislota ning sianamid yoki sianalkilkarbonatlar bilan kondensatsiyalanishidan 2-aminoxinazolon-4 yuqori unum (91%) bilan hosil qilingan [33,41]. Agar xlor-karbonat kislota ning alkil efiri olinsa undan 2-alkoksikarbonilxinazolon-4 (unum 60-90%) hosil bo'ladi [42].

Xuddi shunday 5-metilantronil kislota va sianamiddan 6-metil-2-aminoxinazolon-4 va uning alkoksikarbonilli hosilalari olingan.




Antronil kislota ning guanidine karbonat bilan 190-200°C da 1,5 soat davomida suyuqlantirilib 2-aminoxinazolon-4 lar (50%) olingan [29,30]:



$R=R^1=H$; $R=OCH_3$, $R^1=H$; $R=H$, $R^1=Cl$

1-Metil-2-aminoxinazolon-4, 1-metil-2-metilxinazolon-4 ni ammiak bilan ampulada nukleofil almashtirish orqali olingan:




Antronil kislota va N-fenil-S-metil-psevdomochevinadan 2-aminoxinazolon-4 sintez qilingan [249]. Xuddi shunday antronil kislota yoki uning metil efiri S-metil-N-almashgan izotiomochevina kondensatsiyasidan 2-aminoxinazolon-4 hosil bo'ladi [43-45].

Antronil kislota amidi xlorformalidin xlorgidrati bilan ta'sirlashib mos ravishda 2-aminoxinazolon-4 hosilalarini yuqori unum bilan hosil qiladi [46].


1.3.2. 2-Aminoxinazolon-4larning kimyoviy o'zgarishlari

1.3.2.1. 2-Aminoxinazolon -4larning alkillash reaksiyalari

2-Aminoxinazolon-4 metil yodid bilan natriy (kaliy) gidroksid ishtirokida spirtli eritmada metillanib 3-metil-2-aminoxinazolon-4 hosil qiladi [47,48] huddi shunday 6-metil-2-aminoxinazolon-4 ni alkillash 3,6-dimetil-2-aminoxinazolon-4 ni beradi [32]:




2-Aminoxinazolon-4 dipolyar antroton erituvchi DMFA va protonli etanolda metil yodid yokimetiltozilalar bilan metillanib faqat 3-metil-2-aminoxinazolon-4 hosil qiladi [49,50]:




X=J, OTs


6-Nitro-2-aminoxinazolon-4ni DMFA da metilyodid bilan alkillaganda izomerlar aralashmasi – N¹, N², N³ – metilmahsulotlar hosil bo'ladi [50,51]. Reaksiya asosan "yumshoq" reaksiya markaz N³ga ketadi. Agar alkillash metiltozilat bilan olib borilsa 13% unum bilan O-alkillash mahsuloti ham hosil bo'ladi:




6 - Nitro-2-aminoxinazolon-4dan farqli ravishda uning 6-brom analogi ikkala alkillash agentlari bilan ham, asosan N³-izomer 6-brom-3-metil-2-aminoxinazolon-4ni hosil qiladi, uning unumi ko'p hollarda 90%, boshqa izomerlar esa oz unum (10%) bilan hosil bo'ladi:




6-Metil-2-xinazolon-4 metil yodid bilan alkillanganda bir xil miqdorda N²va N³-izomerlar hosil bo'ladi, metiltozilat bilan esa N² izomer miqdori ko'proq bo'ladi. Bunda boshqa izomerlar bilan birga O⁴ – metilmahsulot ham hosil bo'ladi:



3-Metil-2-aminoxinazolon-4 DMFA da metillanganda N^2 va N^1 metil mahsulotlar hosil bo'ladi:




2-Metilmonoxinazolon-4 metil yodid bilan metillanganda yaxshi unum bilan faqat N^3 –metil mahsulot, metiltozilat bilan metillanganda esa N^3 -izomer birga O^4 -metilmahsulot ham kam unum bilan bo'lsada hosil bo'ladi:



1.3.2.2. 2-Aminoxinazolon-4 larning asillash reaksiyalari


3-Metil-2-AX-4 ni atsillash ekzosiklik aminoguruh hisobiga 2-asil(aroil) AX-4 hosil bo'lishi bilsn boradi [52]:




Reaksiyani borishi reaksiya olib boriladigan sharoitga bog'liq bo'ladi. Reaksiyaning maqbul sharoitini topish maqsadida 3-metil-2-AX-4 ni xlorugol kislotaning metil efiri bilan xona temperaturasi va qizdirilganda turli erituvchilarda (abs efir DMFA, piridin) golloidvodorodlarning akseptorlari ishtirokida (TEA, piridin) reaksiya davomiligini variantlagan holda asillash reaksiyalari o'tkazilgan. Atsillash reaksiyasining maqbul sharoiti bo'lib xlorangidrid kislota – TEA ning

ekvimolyar nisbatlarida, absolyut benzolda yoki DMFA (90-95°C) 4 soat davomida olib borishdir; xona temperaturasi reaksiya bormaydi.


N¹ azot atomi bo'yicha yuqorida keltirilgan yoki boshqa sharoitlarda turli xlorangidridlar va kislota angidridlari bilan asillash reaksiyalari omadli bo'lmadi. DMFA yoki benzolda asosning mavjud bo'lmagan holda reaksiya bormaydi, lekin 3-metil – 1-asil-2-aminoxinozolon-4-il-2-ya yoki 2-metil-1-asil-2-amino-2,3-digidroxinozolon-4 hosil bo'lishi kutilgan edi:



Reaksiyani endosiklik N¹ aminoguruh bo'yicha yo'naltirish benzoilxlorid holatida nisbatan oson amalga oshdi. Shunga ko'ra, 3-metil-2-AX-4 C₆H₅COCl bilan absolyut dimetilfarmamidda 0°C da ta'sirlashganda 3-metil-1-benzoil-2-aminoxinozolon-3-ya xloridi, temperatura oshirilganda xatto 20°C da 3-metil-2-benzoilaminoxinozolon-4 hosil bo'ladi:




3-Metil-1-benzoil-2-AX-4 suv, yoki ammiakning suvdai eritmasi, yoki natriy bikarbonatning suvdagi eritmasi ishtirokida 3-metil-2-AX-4 ga va benzoy kislotaga yoki uning hosilalariga parchalanadi. 3-metil-1-benzoil-2-imino-1,2,3,4-tetrogidroxinozolon-4 ga vodorod xlorid molekulasini biriktirish imkoni bo'lmadi: bunda yoki mahsulotlarning parchalinishi yoki dastlabki moddaga qaytishi kuzatildi:



3-Metil-1-benzoil-2-AX-4 asilotro qayta guruhlanishga uchraydi va 3-metil-2-benzoilaminoxinozolon-4 hosil qiladi. Reaksiya qizdirilganda DMFA yoki benzolda trietilamin ishtirokida tez boradi.


6-Nitro-3H(metil)-2-AX-4 ning sirka, xlorsirka, γ -xlormoy, izovalerian, benzoy, o-metoksibenzoy kislotalarning xlorangidridlari bilan reaksiyalari o'rganilgan. Galloidvodorodning aksetori bo'lib TEA hisoblanadi, reaksiya reagentlarning ekvimolyar nisbatlarida benzolda, DMFA da o'tkazildi va 30-76% reaksiya unumi bilan 6-nitro-3-H(metil)-2-asil(aroil)-aminoxinozolon-4lar olindi:




Reaksiya benzol muhitida hatto qizdirilganda ham o'tmaydi, a dimetilfarmamidda, masalan 6-nitro-2-AX-4 holatida xona haroratida ham reaksiya o'tadi.

6-Nitro-3H(metil)-2-AX-4 reaksiyasi ekzosiklik aminoguruh hisobiga bordi, bunda N¹ bo'yicha asillash mahsulotlari hosil bo'lmadi, 6-nitro-3H-2-AX-4 holatida ham mahsulotlar olinmagan.


3-Metil-2-MKAX-4, 1-metil-2-MKAX-4, 2-(N-metil-N-metoksikarbonil)-AX-4 3-metillar va 1-metil-2-AX-4 ni pirimidinda TEA ishtirokida metilxlorfarmiat bilan asillab sintez qilinani. 2-(N-Metil-M-metoksikarbonil)-AX-4 erituvchi bo'lmagan sharoitida asillovchi agent mol miqdor olingan holda sintez qilingan:



2-AX-4 hosilalaridan 2,3-diaminoxinol-4 ham asillashga uchradi. Reaksiya sirka angidridi va asetosirka efir ishtirokida olib borildi; sirka angidridini ishlatgan holda diatsillash mahsuloti – 2,3-(diasetilamino)xinol-4 hosil bo'ldi [551]:




2,3-Diaminoxinol-4 (2,3-diAX-4) asetosirka efir bilan ta'sirlashganda monoasillash mahsuloti – 3-amino-2-asetoksiasetilaminoxinol-4 hosil bo'ldi, ya'ni asillash 2 holatdagi ekzosilik aminoguruh hisobiga bordi:



2,6-DiAX ni asillash reaksiyasi yo edosiklik, yoki ekzisiklik azot atomi hisobiga boradi, bundan tashqari benzol halqasidagi aminoguruh yoki ikkala aminoguruh hisobiga ham reaksiya boradi. 2,6-diAX ni asillash reaksiyasi 3-metil,6-nitro-3H(metil)xinozolon-4 kabi ekzosiklik aminoguruh hisobiga boradi. 2,6-diAX holatida reaksiyani o'tkazish sharoitiga va reagentlar o'zaro nisbatiga bog'liq holda yoki mono- yoki diasil hosilalar hosil bo'ladi; monoasillashda reaksiyaga aromatic halqadagi kuchriq asos xossaga ega aminoguruh kirishadi.

Asillash kislota angidridlari, xlorangidridlari bilan katalizator ishtirokida, yoki katalizatorsiz, benzol, dimetilfarmamid muhitlarida Shotten-Bauman bo'yicha, 2,6-diAX-4 – kislota angidridlari o'zaro nisbati 1:2 bo'lgan sharoitlarda o'tkazildi; bunda reaksiya xinozolin halqasidagi 2 va 6 holatdagi ikkala aminoguruh hisobiga bordi, nisbatlar 1:1 bo'lgan holatda – 2 yoki 6 holatdagi aminoguruh hisobiga reaksiya borishi kuzatildi:




Asillovchi agent sifatida sirka angidridi, sirka, bromzoy kislotalarning xlorangidridi ishlatiladi. Ushbu reaksiyani sirka angidridining mol miqdori bilan olib borilsa 2,6-diasetilaminoxinozolon-4 hosil bo'lishiga olib keladi (jarayon katalizatorsiz o'tadi). Ushbu jarayon kaliy gidroksidining suvdagi eritmasida Shotten-Bauman bo'yicha 2,6-diAX-4 – kislota xlorangidridi – NaOH o'zaro nisbatlari 1:2:2 bo'lgan sharoitda o'tkazilsa 2,6-di(benzoilamino)xinozolon-4 hosil bo'ladi. Trietilamin ishtirokida 2,6-diAX-kislota angidridi-TEA larning ekvimolyar o'zaro nisbatlarida jarayon o'tkazilsa monoasillash mahsuloti hosil bo'ladi.

C⁶ holatda asillash borishining boshqa sabablari ham bor. 2AX-4 ni sirka angidridi va asetilxlorid bilan asillaganda hosil bo'ladigan 2-asetilaminoxinozolon-4 – juda beqaror va reaksiya aralashmani suvli eritmada qayta ishlash vaqtida asetil qoldig'ini ajratib yuborishi kuzatildi [53], shuning uchun hosil bo'ladigan oraliq mahsulot 2,6-di-asetlamino)-3H(metil)xinozolon-4 ni reaksiya vaqtida yoki mahsulotni qayta ishlashda 2-amino-3H(metil)-6asetilamino-xinozolon-4 gacha parchalanishini kutish mumkin.


3-Metil-2-dimetilaminoformilidenaminoxinazolon-4 ning sirka angidridi bilan asillash reaksiyasi ham o'rganilgan. Bu holatda reaksiyani ikki yo'nalishda borishini kutish mumkin: molekulaning N¹ va N³ formamid holatidagi azot atomining asillanishi. Sirka angidridining mol miqdori bilan 60°C gacha qizdirilganda reaksiya bormadi, faqat 120-130°C da reaksiya amalga oshirildi, bunda 3-metil-2-

asetiloksimetilidenaminoxinazolon-4 hosil bo'ldi, ya'ni ushbu holatda asillashmolekuaning formamid qismidan dimetilaminning ajralishi bilan boradi:



Shuning bilan 3-metil-2-asetil-AX-4 hosil bo'lishi bilan boradigan boshqa yo'l amalga oshdi.

3-Metil-2-AX-4 fenilizosianat bilan katolizatorsiz sharoitda ta'sirlashadi va N-(3-metilxinozolon-4-il-2)-N¹-fenilmochevinani hosil qiladi:




2-AX-4dan farqli ravishda 2-aminoxinozolonlarda osonroq boradi. 6-Gidrokso-2-aminoxinozolinni mol miqdor sirka angidridi bilan piridin ishtirokida asillaganda diasillash mahsuloti 6-asetoksi-2-asetilaminoxinozolin yaxshi unum bilan hosil bo'ladi [54].

2-Amino-8-gidrokso-6-gidroksimetilxinozolinni yuqorida keltirilgan sharoitda asillaganda asillashga ham aminoguruh, ham gidroksiguruh uchraydi [55].


6-Metil-2,4-diaminoxinozolinni benzoil xlorid bilan dioksanda benzoillaganda 6-metil-2,4-di(benzoilamino)-xinozolin yaxshi unum bilan hosil bo'ladi [31].

5,7-Dimetil-2-APP-4 ni sirka nagidridi bilan asillash reaksiyasi aminoguruh uchun selektiv o'tadi, ya'ni monoasilmahsulot 2-asetilamino-5,7-dimetil-4 hosil bo'ladi. Reaksiyaning boshqa mahsulotlari asillash agentini mol miqdor olganda ham hosil bo'lmadi. Benzol angidridini ishlatgan holatda asillash faqat bir yo'nalishda boradi va 2-benzoilamino-5,7-dimetil-PP-4 [56] hosil bo'ladi:




1.3.2.3. 2-Aminoxinazolon-4 larning ayrim boshqa reaksiyalari


2-AX₄ ning elektrofil almashinishi ham 6 holatda hecha qanday asoratsiz o'tadi. Shunga ko'ra 2-AX-4, 5-xlor-2-AX-4, 2-metoksikarbonilaminoxinazolon-4 (2-MKAX-4)larni nitrolovchi aralashma bilan nitrolaganda 6-nitrohpsilalar olinadi [57,58]:





2-AX-4ning 6-Brom-, -nitro-, -yod hosilalari, 4-metil-2-AX-4, 2MKAX-4 lar 2-AX-4, 3-metil-2-AX-4 va 2-MKAX larni mos ravishda [57-59] bromning sirka kislotasidagi eritmasi, nitrolovchi aralashma yoki yod momxlorid bilan elektrofil almashinish reaksiyalari orqali olingan:



3-Metil-,2-metil-AX-4 ni nitrolash va bromlash ham mos ravishda 6-nitro (brom) hosilalar hosil bo'lishiga olib keladi:




